



"TASDIQLAYMAN"

Farg'ona davlat universiteti

rektor, p.f.d., professor

B.Shermuhammadov

2024-yil

Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish satjiga ega bo'lgan fuqarolarni Farg'ona davlat universitetining tegishli ta'lim yo'nalishlari sirtqi ta'lim shakliga suhbat asosida o'qishga qabul qilish imtihonidagi suhbat savollarini

BAHOLASH MEZONI

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha har biridan bir donadan savol beriladi va umumiy maksimal 100 ballgacha baholanadi. 55 baldan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

№	Mavzular	Maksimal ball
1	O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.	25
2	Nima sababdan bakalavriatning iqtisodiyot ta'lim yo'nalishini tanladingiz?	25
3	Siz ushbu yo'nalishga mos mehnat faoliyatingiz davomida qanday yutuq va natijalarga erishdingiz?	25
4	Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha	25
	Jami	100

Berilgan savollarga talabgorning javobini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida ongli bilimlar to'plami ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Bunda tushunchalarni ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan xatolar bo'lishi mumkin.	22-25

2	Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin	18-21
3	Yetarlicha to'liq va yetarlicha batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyliги va ketma-ketligi buzilganda. Tushunchalarni ochishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaganda. U umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4	Talabgor savol mavzusi bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolar bo'lgan tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglamaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lmaganda. Saviyasi nisbatan past nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	0-13

Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri,
5 yillik stajga ega hamda turli yo'nalishlarda
imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlarga suxbat
tashkil etish bo'yicha mas'ul, p.b.f.d. (PhD):



I. Soliyev